

XITOY TILIDAGI KUNDALIK HAYOTDA TEZ-TEZ UCHRAB TURUVCHI  
EVFEMIZMLAR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352262>

HIKMATOV Amir

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Nasirova S.A.

*We use euphemisms not only everyday even in political speech's euphemisms are used very often. Euphemisms are usually used to make speech more beautiful. We may use euphemisms in speeches of several majors and professions.*

Bizga ma'lumki, evfemizmlarning jamiyatimizdagi o'rni juda ham beqiyos. Evfemizmlar nafaqat kundalik hayotimizda, balki jamiyatning siyosiy qatlamlarida ham keng qo'llaniladi. Evfemizmlarni turli sohalar va kasblardagi muloqotda istalgan payt eshitishimiz mumkin. Evfemizmlar odatda chiroyli gapirish uchun, suhbat o'ta tasirli chiqishi uchun, hayajonli vaziyatlarda so'zlarni insonlarga muloyim tarzda (qog'ozga o'rab) yetkizish uchun qo'llaniladi<sup>1</sup>.

Qadimda xitoylar o'z ayolini “内助” deya chaqirganlar. Ilgari erkaklar ro'zg'or tebratish uchun asosan ko'chadagi tirikchilik bilan mashg'ul bo'lganlar. Ayollar esa oila yumushlari, farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanganlar<sup>2</sup>. Ayollarni “内助”<sup>3</sup> “内子” deb xam atashgan, unga monand erni “外子” deb chaqirilgan. “内助” bu erkak o'z ayolining kamtarona chaqirish usuli xisoblangan. Agar biror bir yaqin insoni yoki do'stining ayoliga murojat qilish kerak bo'lsa “贤” so'zini qo'shib chaqirganlar. Masalan “贤内助” ya'ni bu so'z “kuchli erkakning ortida kuchli ayol turadi” ma'nosini bergan. Bu ham hurmat, ham Evfemizm sifatida qo'llanilgan. O'tmishda erlar o'z ayollarini “拙荆” deb ham chaqirganlar. Bu so'z hozirgi zamonaviy xitoy tilida “鄙人的很贫寒的女人” yani “sodda va juda ham kambag'al, nochor ayol” manosini bergan. “荆” “荆钗” so'zidan olingan bo'lib “o't-o'lan, o'simlik” manosini beradi. “拙荆”dagi “拙” aynan “odmi, sodda” manolarini anglatadi ya'ni “鄙人” ni Evfemizm ko'rnishi.

Insonlarga xos yana quyidagi evfemizmlar ham bor “我这个人不怎么聪明”, “我这个人比较蠢” yoki yana xam kuchliroq “我这个人是个笨蛋”... Agar siz o'z ayolingizni chaqirishda “拙型” dan foydalanmasdan qo'pol tarzda “我这个没有教育的笨蛋女人” ya'ni, “bu meni tarbiyasiz axmoq xotinim” deya tanishtirsangiz bu nafaqat ayolingizni balki o'zingizni ham taxqirlaganingiz ya'ni xaqoratlaganingiz bo'ladi<sup>4</sup>.

Ilgari insonlar hayotida juda xam ko'p aytilishi taqiqlangan so'zlar ya'ni “tabu” lar bo'lgan. Insonlar ifodalamoqchi bo'lgan so'zi “tabu” bo'lsa “yaxshisi ifodalamay, aytmay qo'yaqolay” deb xisoblashgan. Keyinchalik asrlar o'tib insonlarning bilim saviyasi oshishi hamda dunyoqarash kengayishi oqibatida mana shunday turli cheklov so'zlari va xar xil irimlardan voz kechganlar. Jamiyat taraqqiyoti ortidan yangi tabu so'zlari ham chiqib kelaverardi. Bu so'zlarni

<sup>1</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%AD%D0%B2%D1%84%D0%B5%D0%BC%D0%B8%D0%B7%D0%BC>

<sup>2</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%AD%D0%B2%D1%84%D0%B5%D0%BC%D0%B8%D0%B7%D0%BC>

<sup>3</sup> [http://baike.baidu.com/link?url=qRtxpP9XTAVUjO0YBQnnJa\\_y1Y6FWtmjEggmdRYCcXjheKKw89fEpUKNu1yqsTbGDkntGIPLKwrSbyGjdetLK](http://baike.baidu.com/link?url=qRtxpP9XTAVUjO0YBQnnJa_y1Y6FWtmjEggmdRYCcXjheKKw89fEpUKNu1yqsTbGDkntGIPLKwrSbyGjdetLK)

<sup>4</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A2%D0%B0%D0%B1%D1%83>

hayotda qo'llash uchun esa mana biz xozirgi zamonda qo'llayotgan tabularga o'rindosh, ya'ni ularni mazmun mohiyatiga ta'sir ko'rsatmagan holda suhbatdoshlarga chiroyli yetkazib beruvchi so'zlar yani "Evfemizmlar" paydo bo'ldi. Masalan "拉屎" so'zini olaylik. Bu juda ham quloqqa xunuk eshitiladi. Odatda bunday so'zlarni madaniyat darajasi pastroq shaxslar qo'llagan. Bu qo'pol so'z orniga "大便", "大解", "上厕所" badiiy tilda esa "如厕" "katta hojat, hojat qilish, hojatga borish", "出恭" tarzida qo'llanilgan. Xoziri kunda jamoat orasida keng qo'llaniladigan shakllari : "我出去一下儿", "我想方便一下儿", "去一号儿", "去一下洗手间", (men shundaychiqib kelay, men bir shamollab kelay, 1-xonaga o'tib kelaman, qo'l yuvish xonasiga borib kelay).

Gankong xamda Taivan tomonlarda "hojatga chiqish" sozini yangicha shaklda talqin qilish urf bo'lgan "去化妆间" ya'ni (pardoz-andoz xonasiga borib kelaman).

Yana shu kabi so'zlardan "怀孕" so'zi "大肚子了" (katta qorin ) deyish biroz qo'pol, odatda bu so'zni yumshoqroq va eshitishga mayinroq so'zlarga almashtiriladi, masalan: "她有喜了 (unda quvonch paydo bo'ldi)" bu yerdagi "有喜" "大肚子" ni o'rnini oluvchi so'z hisoblanadi, odamlar yana "她有了" ni xam ishlatadilar, "她快当妈妈了" (u tez orada ona bo'ladi) bu ham asl ma'no ham evfimizistik shakli.

Biror bir shaxsni tanasidagi kamchiligini aytishda ham turli xil Evfemizmlardan foydalanamiz. Masalan "耳聋", "聋子" so'zlari anchagina qo'pol hisoblanadi. Ma'nosi "kar" degan so'zga to'g'ri keladi. Bu so'zni odamlar "耳朵背", "耳朵比较背" "qulog'i og'ir" yoki "耳朵有一点儿不好", "耳朵有一点儿不便" (qulog'i uncha yaxshi eshitmaydi) shakllariga almashtirib ishlatadilar. Qadimda "聋子" so'zini yana "重听" sifatida ham ishlatganlar. To'ladan kelgan insonlarga nisbatan "你发胖了" (sen semirib ketibsan) shakli emas balki "你发福了" (boyib ketibsanmi) ni qo'llash ma'qulroq. Yana shu kabi "他很胖" (U juda semiz) emas balki "他很壮" (U juda ba'quvvat) atamasi ishlatiladi. Oriq insonlarga asosan ayollarga "你太瘦了" (juda ozg'insiz) shakli emas balki "你真苗条" (siz juda hushqomatsiz) shakli ishlatiladi. Jamoat transportlarida oyog'i noqis nogiron shaxslarga joy berish masalasida avtobus xizmatchisi odamlarga qarata "给这位瘸子让个座" deyish o'rniga "这位腿不方便, 哪位给让个座" ishlatiladi. Ya'ni "bu nogironga joy bervinglar" emas balki "oyog'i turganda noqulaylik tug'diradi, marxamat qilib joy bersangiz" deya murojat qilinadi, murojatning bunday shakli birmuncha yoqimliroq eshitiladi.

Xitoylar biror bir shaxsga rad javobi aytishda ham Evfemizmlardan foydalanadi. Ular konglida rad javobi bo'lsa ham tilda aytmaydilar, chunki suhbatdoshni kutilmagan rad javob bilan noqulay vaziyatga tushirmaslik hamda ko'nglini og'ritmaslik. Masalan "行, 行, 行, 以后再说" (xo'p, xo'p, xo'p, yana bir boshqa gaplashamiz), "等我们研究研究 (bir o'rganib chiqamiz)", "好, 好, 先把材料放在这儿吧" (yaxshi, yaxshi, ma'lumotlarni bu yerga qo'yib ketaqolin), "以后我们再跟您联系" (keyinroq o'zimiz aloqaga chiqamiz), "来日方长" (xali vaqt bo'ladi, oldinda kunlar ko'p), "改天吧" (boshqa safar). Bunday so'zlar chiroyli ko'rinishda rad etishning bir yo'li hisoblanadi, agar siz mana shunday gaplarni eshitsangiz bemalol o'sha narsadan umidingizni uzsangiz xam bo'ladi.

Oila a'zolari va yaqin qarindoshlarga murojaatda ham o'ziga xos chaqirish usullari mavjud. Masalan: ota-ona o'z farzandini erkatalib "犬子" yani "kuchikcham" deb chaqiradi, qizni esa "小女", begona shaxsni qizini "令媛", o'g'lini esa "令郎", suxbatdoshni otasini "令尊", onasini esa "令堂" deya murojat qilinadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI (REFERENCES)**

1. Горелов В.И. Лексикология китайского языка. – М., 1978.
2. Семенов В.Н. Лексика китайского языка. Москва «Муравей», 1986 г.
3. Миллер А.А. Слэнг и просторечие // материалы межвузовской конференции.-Алматы, 1998.
4. Копыленко М.М. Основы этнолингвистики.-Алматы: Евразия, 1995.-
5. 陈愿“语言与社会生活”
6. 现代汉语词典 .
7. СА Хашимова [О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ \(НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА\)](#). - SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 2022.
8. С Хашимова. [О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ](#). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
9. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
10. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с (р. 361).*
11. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
12. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
13. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
14. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
15. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
16. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
17. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
18. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
19. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
20. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
21. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0

- 
22. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации. С. 187-188.
23. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ 3,384,2019